

“IBLIS DEVORI” HAMDA “FARENGEYT BO‘YICHA 451 DARAJA”
ASARLARIDA EVFEMIZMLARNING LINGVOPRAGMATIK
CHOG‘ISHTIRMA TADQIQI

Shaxzoda FAHRIDDINOVA

shaxzodafahriddinova11@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20677474>

Annotatsiya. Ushbu maqola o‘zbek va ingliz adabiyotidagi asarlarda qo‘llanilgan evfemizmlarning lingvopragmatik xususiyatlarini chog‘ishtirma tilshunoslik nuqtayi nazaridan o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda har ikki asarda evfemizmlardan foydalanish maqsadlari, yo‘nalishlari hamda ularning pragmatik vazifalari qiyosiy tahlil qilindi. Shuningdek, maqolada tanlangan asarlarda uchraydigan evfemik birliklarning qo‘llanish darajalari ham ko‘rib chiqildi. Mavzu yuzasidan ilmiy xulosalar berilib, evfemizmlarning lingvopragmatik xususiyatlariga oid mavjud ilmiy qarashlarga munosabat bildirildi.

Kalit so‘zlar: evfemizm, evfemik ifoda, tabu, lingvopragmatik xususiyatlar, chog‘ishtirma tilshunoslik.

Аннотация. Данная статья посвящена изучению лингвопрагматических особенностей эвфемизмов, использованных в произведениях узбекской и английской литературы, с точки зрения сопоставительного языкознания. В исследовании проведён сравнительный анализ целей, направлений использования эвфемизмов, а также их прагматических функций в обоих произведениях. Кроме того, в статье рассматриваются уровни употребления эвфемистических единиц, встречающихся в выбранных произведениях. По данной теме представлены научные выводы, а также выражено отношение к существующим научным взглядам на лингвопрагматические особенности эвфемизмов.

Ключевые слова: эвфемизм, эвфемистическое выражение, табу, лингвопрагматические особенности, сопоставительное языкознание.

Annotation. This article is devoted to the study of the linguopragmatic features of euphemisms used in works of Uzbek and English literature from the perspective of comparative linguistics. The study provides a comparative analysis of the purposes and directions of euphemism usage, as well as their pragmatic functions in both works. In addition, the article examines the levels of use of euphemistic units found in the selected literary texts. Scientific conclusions on the topic are presented, and existing scholarly views on the linguopragmatic features of euphemisms are discussed.

Key words: euphemism, euphemistic expression, taboo, linguopragmatic features, comparative linguistics.

Evfemizm termini yunoncha eu – “yaxshi, go‘zal” va phemi – “gapirmoq” so‘zlaridan kelib chiqqan bo‘lib, noxush, qo‘pol yoki tabu hisoblangan tushunchalarni yumshoqroq ifodalar bilan almashtirishni anglatadi. Yunonlar so‘zning sehrli kuchiga ishonganlari sababli o‘lim, iblis yoki xudolar bilan bog‘liq ayrim so‘zlarni bevosita qo‘llashdan qochib, ularning o‘rniga muloyimroq birliklardan foydalanganlar. Shu



tariqa evfemizmlar nafaqat tabuni buzmaslik vositasi, balki nutq madaniyatini shakllantiruvchi lingvistik hodisa sifatida ham rivojlangan. [6; 126-b.]

XVII asrdan evfemizim ilmiy atama sifatida qabul qilindi. Aniqroq qilib aytganda, 1656-yilda “euphemism” soʻzi ingliz tilida Thomas Blount tuzgan “Glossographia: A Dictionary Interpreting Hard Words” lugʻatida ilk bor rasman hujjatlashtirilgan. [3]

Evfemizimning paydo boʻlishi tabu nazariyasi bilan bevosita bogʻliq boʻlib, Stiven Ullman oʻz asarlarida tabulashgan soʻz evfemizim yordamida oʻzgartirilgan degan fikrlarni keltirib oʻtgan va tabuni asosiy 4 ta sabab bilan bogʻlagan: diniy sabab, axloqiy sabab, madaniy sabab, psixologik sabab. Fikrimizcha, olim tabuni turli xil sabablarini oʻrganib, uni guruhlashtirib oʻz qimmatli maʼlumotlarni tilshunoslik olamiga qoʻshib oʻtgan. Zamonaviy tilshunoslikka kelib bir nechta tadqiqotlardan soʻng tabu va evfemizmlar sinonim soʻzlar deb atalgan, yaʼni har ikkisi ham bir xil maʼnoli soʻzlarni turli usullar bilan nomlash hisoblanadi degan fikrlar ham keltirib oʻtilgan. [10; 13-b.]

Lingvopragmatika XX asrning ikkinchi yarmida Ch. Morris tomonidan mustaqil fan sifatida qabul qilindi. Lingvopragmatika tinglovchi va soʻzlovchi oʻrtasidagi munosabatlarga oid masalalarni oʻrganadigan soha hisoblanadi. Demak, lingvopragmatika soʻzlarning lugʻaviy maʼnosi emas, balki gapning asl maqsadi, kim va kimga qaysi vaziyatda gapirayotganini oʻrganadigan fandır. [5; 6-b.]

Tilshunoslik olamida koʻplab yetuk olimlar evfemizim toʻgʻrisida turli tadqiqotlar amalga oshirishdi hamda evfemizimni turli jihatdan tahlil qilib, turli tillarda qiyoslab oʻrganishdi. Keith Allan va Kate Burridge oʻzlarining mashhur “Euphemism and Dysphemism: Language used as a Shield and Weapon” asarida evfemizimni “himoya vositasi” oʻrnida ham ishlatilishi mumkin, - degan fikrlarni berib oʻtishgan. Tabu mavzusiga oid soʻzlar evfemizim orqali yumshoqroq tarzda ifodalaniladi. Masalan *to die* (oʻlmoq) soʻzi oʻrniga *to pass away* (olamdan oʻtmoq) soʻzi ishlatilini yomon xabar yumshoqroq tarzda tinglovchiga yetqaziladi. [1; 11-12 b.]

R. W. Holder evfemizmlar yoqimsiz va ijtimoiy jihatdan nozik masalalarni bevosita aytmalik uchun qoʻllanishini taʼkidlab oʻtadi. U oʻzining asarida ingliz tilidagi koʻplab evfemizmlarni jamlagan va ularni mavzulashtirib chiqqan. Unga koʻra evfemizmlar asosan oʻlim, kasallik, tana aʼzolari, jinsiy hayot, pul va ijtimoiy mavqe kabi sohalarda ishlatiladi. [7; 6-8 b.]

Oʻzbek tilshunoslaridan A. Omonturdiyev “Evfemik vositalarning funksional-uslubiy xususiyatlari” nomli nomzodlik dissertatsiyasida evfemizmlarni bir necha asos boʻyicha guruhlab chiqadi. Ulardan voqelikni tabulash, grammatik-semantik shakllanishiga koʻra (lisoniy va nutqiy), tasviriylik va boʻyoqdorlik darajasiga koʻra

(individual va okkazional), ma'noning ifodalanish usuliga ko'ra (tagma'noli evfemalar), evfemik qatlamning shakillanish roliga ko'ra (ritorik va olmoshli ifodalar), ifoda usuliga ko'ra (verbal, noverbal), noadabiy til vositalarining qo'llanishiga ko'ra (argo-simvolik evfema, umumnutqiy, xususiy nutqiy) kabi guruhlariga ajratib izohlab beradi. [9; 8-10 b.]

Lingvopragmatika sohasida ham turli olimlar ko'plab izlanishlar olib borishgan. J. L. Austin lingvopragmatikada faqat axborot yetkazish emas, balki harakat bajarish vositasi deb talqin qiladi. Misol uchun “I promise” (va'da beraman) degan gapda xabar berishdan tashqari va'da berish harakati ham borligini aytib o'tgan. U nutq aktlarini 3 turga bo'ladi: locutionary act (gapni aytish harakati), illocutionary act (gap orqali bajariladigan asosiy maqsad) va perlocutionary act (gapning tinglovchiga ta'siri). [2; 94-108 b.]

Quyidagi tadqiqotda yuqorida keltirilgan ilmiy-nazariy qarashlar Tohir Malikning “Iblis devori” hamda Rey Bredberining “Farengeyt 451” asarlari asosida tahlil qilinadi. Ushbu asarlarda qo'llanilgan evfemizmlar lingvopragmatik xususiyatlari aniqlanib, turli misollar bilan qiyoslab tahlil qilinadi.

Chunonchi, “Iblis devori” asaridagi *Nahot ro'paralarida oson yo'l turganini ko'rishmaydi* [8; 43-b.] gapidagi evfemizmining asl tarjimasini biron bir vaziyatdagi qiyinchiliksiz qilinishi mumkin bo'lgan usul ma'nosini anglatadi. Asardagi ma'nosi o'zini o'ldirish haqida keltirilgan. Demak, *oson yo'l* ifodasi kontekstual birlik bo'lib, gapning o'sha vaziyatidan kelib chiqib ma'no tarjima qilinadi. Bundan tashqari, *oson yo'l* ifodasining o'zini o'ldirmoq, joniga qasd qilmoq sinonimlari ham mavjud. Uchta so'zning emotsional holatlari har xil bo'lib o'zini o'ldirmoq – neytral ifoda, joniga qasd qilmoq – emotsional kuchli bo'rtirish ohangida, *oson yo'l* – emotsional kuchsiz, ta'sirini kamaytirish ma'nosida keladi.

“Farengeyt 451” asarida ham o'zini o'ldirmoq ifodasi *She had taken too many pills* [4; 18-b.] gapida ifodalangan. Asl tarjimasini dorilarni ko'p qabul qildi deb tushunilsa, kontekstual ma'no o'zini o'ldirish deb tarjima qilinadi. Sinonimlari esa neytral ifoda uchun *death by suicide*, emotsional kuchsiz variantlari *ending one's life*, *voluntary death*, emotsional bo'rtirish variantlariga esa *self-murder*, *self-slaughter* ifodalari misol bo'la oladi.

“Iblis devori” asaridan *Oynisa yevropalik qiz bo'lganida yigit bilan ishini pishirib olib* “*oyi, tanishing, bu yigit bilan turmush qurmoqchiman*”, *deyishdan qaytmasdi* [8; 96-b.] degan gapda jinsiy hayot mazmuni evfemizm orqali ifodalangan. Asl ma'noda shunchaki biron ishni qoyillatib qo'yish deb tushunilsa, kontekstual ma'no jinsiy hayot mazmunida kelmoqda. *Yigit bilan ishini pishirib olib* evfemik ifodada ma'no ancha

yumshatilgan bo'lsa, neytral shakllariga jinsiy munosabat, tanosil munosabati so'zlari misol bo'ladi va bevosita qo'polroq ko'rinishlariga jinsiy aloqa qilish, birga bo'lish ifodalari misol bo'ladi.

Xuddi shu mazmundagi gapni “Farengeyt 451” asarida ham kuzatsak bo'ladi. ... *entering a wrong room, and bedding with a stranger and getting up early and going to work* [4; 42-b.] gapidagi evfemizmning kontekstual ma'nosi begona inson bilan aloqa qilmoq bo'lsa, asl ma'noda *bedding* ko'rpa-yostiq degani. Uning darajalari: *bedding with a stranger* yumshatib, ma'noni emotsional kamaytirib ifodalangan, neytral shakl *having sex with a stranger* va ma'noni qo'pol shakli *screwing a stranger* kabi birliklarda ifodalaniladi.

“Iblis devori” asaridagi keying misol “*Uningcha odamni moddiy tomondan yetishmovchilik o'g'rilikka undardi*” [8; 54-b.] gapi bo'lib, bu yerda kambag'allik so'zining evfemizm shakli keltirilgan. *Moddiy tomondan yetishmovchilik* iborasi orqali vaziyat yumshoq tarzda ifodalangan, neytral ko'rinishi kambag'allik va qo'pol tarzda ifodalash uchun qashshoqlik, muhtojlik, faqirlik so'zlari misol bo'la oladi.

“Farengeyt 451” asarida ham kambag'allik holatini ifodalovchi evfemik ibora ishlatilgan: *when we can afford ...* [4; 19-b.] Bu yerda qurbimiz yetsa deb moliyaviy holatini yumshoq tarzda ifodalagan. Bu so'zning neytral shakli *when we can pay for it* shaklida qo'llaniladi. Bo'rttirishni ifodalovchi frazalarga *when we are not poor/broke* ifodalarini keltirish mumkin.

Demak, misollardan ko'rinib turibdiki, har ikkala asarlarda ham so'zning qaysi holatda qo'llanilayotgani tarjima uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Biz tarjima jarayonida evfemizmlarni lingvopragmatik jihatdan tahlil qilib, so'ng qaysi ma'noda ekanligini anglashimiz mumkin. So'zlarni shunchaki kontekstdan olib lug'atdan qidirilsa, so'zning asl ma'nosini ko'ramiz va bu ko'p hollarda tarjimada xatoliklarni keltirib chiqaradi.

“Iblis devori” hamda “Fahrenheit 451” asarlaridagi evfemizmlar tahlillariga ko'ra, har ikki yozuvchi ijodida evfemizmlar shunchaki uslubiy vosita emas, balki lingvopragmatik ta'sir kuchiga ega bo'lgan birlik sifatida namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Allan K., Burrige K. Euphemism and Dysphemism: Language Used as Shield and Weapon. – New York: Oxford University Press, 1991. – B. 263.
2. Austin J. L. How to Do Things with Words. 2nd ed. Oxford: Clarendon Press, 1975. – B. 168.
3. Blount T. Glossographia: A Dictionary Interpreting Hard Words. - London, 1656.
4. Bradbury R. Fahrenheit 451. – New York: Ballantine Books, 1953. – B. 163.

“FILOLOGIYANING DOLZARB MASALALARI”

respublika ilmiy-amaliy konferensiya



5. Charles M. *Lexicon Grammaticorum: A Bio-Bibliographical Companion to the History of Linguistics*. 2nd ed. Max Niemeyer Verlag, 2009. – B. 1050.
6. Hojiyev A. *Lingvistik terminlar izohli lug'ati*. – Toshkent: O'qituvchi, 2002. – B. 158.
7. Holder R. W. *How Not to Say What You Mean: A Dictionary of Euphemisms*. – New York: Oxford University Press, 2002. – B. 501.
8. Malik T. *Iblis Devori*. – Toshkent: Sharq, 2006. – B 135.
9. Omonturdiyev A.J. *Evfemik vositalarning funksional xususiyatlari: Filol. fanlari nomzodi...* diss. – Toshkent, 1997. – B. 176.
10. Ullmann S. *Semantics: An Introduction to the Science of Meaning*. — Oxford: Basil Blackwell, 1962. – B. 290.

